




**TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**


**2023- YIL  
YANVAR-OKTABR**

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida, Toshkent viloyatida jami 10987,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 106,8 %ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari


Norasmiy sektor

Kichik korxonalar va mikrofirmalar



## 2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



1508

•Bino va inshootlar qurish

371

•Fuqarolik obyektlarini qurish

1055

•Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yilning shu davriga nisbatan 72,4 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 51,4 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,8 foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 97,4foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 36.0 foiz ulushni va o'tgan yilga nisbatan 69,9 foizni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.11.2023- y.	01.11.2022- y.	
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2934</b>	<b>4051</b>	<b>72,4</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	125	207	60,4
Olmalik	140	215	65,1
Angren	171	283	60,4
Bekobod	118	185	63,8
Ohangaron	104	144	72,2
Chirchiq	297	349	85,1
Yangiyo'l	74	90	82,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	61	96	63,5
Ohangaron	66	83	79,5
Bekobod	88	121	72,7
Bo'stonliq	113	147	76,9
Bo'ka	116	141	82,3
Quyichirchiq	60	88	68,2
Zangiota	222	296	75
Yuqori Chirchiq	185	245	75,5
Qibray	300	412	72,8
Parkent	96	119	80,7
Piskent	62	86	72,1
O'rta Chirchiq	150	212	70,8
Chinoz	92	140	65,7
Yangiyo'l	131	208	63
Toshkent	163	184	88,6



# 2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da


**Qibray (10,2)**



**Chirchiq sh. (10,1)**



**Zangiota (7,6)**





# Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-oktabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>10987,9</b>	<b>2214,3</b>	<b>5815,6</b>	<b>2958</b>
<b>shaharlar:</b>				
Nurafshon	549,2	36,1	479,4	33,7
Olmaliq	1642,5	1357,7	200,2	84,6
Angren	284,2	8,4	224,7	51,1
Bekobod	304,4	146	138,5	19,9
Ohangaron	180,7	0,8	156,8	23,1
Chirchiq	424	31,9	356	36,1
Yangiyo'l	272,5	27,2	202,2	43,1
<b>tumanlar:</b>				
Oqqo'rg'on	268,5	22,4	200,6	45,5
Ohangaron	400,9	2	314,9	84
Bekobod	99,4	0	59,9	39,5
Bo'stonliq	381,3	45,9	87	248,4
Bo'ka	259,7	0	214,5	45,2
Quy Chirchiq	599,7	0,4	511,6	87,7
Zangiota	1044,6	0,6	704	340
Yuqori Chirchiq	934,4	127,1	497,4	309,9
Qibray	1115,4	366,3	361	388,1
Parkent	278,7	0	86,6	192,1
Piskent	153	0	112	41
O'rta Chirchiq	511,8	31,1	295,8	184,9
Chinoz	194,3	0	109,7	84,6
Yangiyo'l	471,4	10,4	267	194
Toshkent	617,3	0	235,8	381,5



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2214,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 105,5%ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,4 % punktga kupayib, 20,0%ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,9 %ni to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 100,3 %ni tashkil etgan holda 5 815,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

52,9

2023- yil  
yanvar-oktabr

56,6

2022- yil  
yanvar-oktabr



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Zangiota tumani (704,0 so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 12,1% ), Quyi Chirchiq tumani (511,6 mlrd. so'm yoki 8,8 %) Yuqori Chirchiq tumani (497,4 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 8,6%)ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 26,9%ni tashkil etdi yoki 2958,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 123,9 %ni tashkil etdi.

2022- yil  
yanvar-oktabr

**2128,9**  
mlrd. so'm


2023- yil  
yanvar-oktabr

**2958,1**  
mlrd. so'm

**22,9%**

**26,9%**

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **223,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **10764,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,0 %** va **98,0 %**ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk



**Ma'lumot uchun:** Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70